

## DO‘PPISIZ MILLAT YOXUD “ABDULLA QODIRIY” HUJJATLI FILMIGA BIR NAZAR

**Xolida Musulmon**

*O‘zJOKU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘zbek hujjatli filmi rivojiga sezilarli darajada hissa qo‘shgan Farrux Jabborov, Iqbol Qo‘shshayeva sseneriyasi asosida suratga olingan “Abdulla Qodiriy” hujjatli filmi haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Abdulla Qodiriy, Umid Hamdamov, Rauf Parfi, film ruhiyati, 1937-yil, tarix, hujjatli film, animatsiya*

“Qachonlardir millat oydinlarining oltin boshi evaziga va’da qilingan jannat bugun bu ko‘yga tushishi kimning xayoliga kelibdi, deysiz? Abdulla Qodiriy qon rangini yaxshi ko‘ruvchi Qizil saltanatning umri qanday yakun topishini oldinday sezganday go‘yo... Tarixni g‘oliblar yozadi, deyishadi”, ammo Anvar kabi toza vijdon bilan mag‘lub bo‘lgan bahodirlarning nomini adabiyot unutmaydi. Abdulla Qahhor aytganidek: “Adabiyotda hech qachon birov birovning o‘rnini egallay olmaydi”.

Ana shunday tarixiy adolatni tiklash maqsadida yaratilgan “Abdulla Qodiriy” hujjatli filmi 2021-yilda suratga olingan. Umid Hamdamov rejissyorligidagi ushbu asarni badiiy-hujjatli film deyishga haqlimiz. Boshqa hujjatli asarlardan farqli o‘laroq bunda quruq tarixiy faktlar hamda voqealar bilangina cheklanib qolinmagan. Unda Abdulla Qodiriy hayot yo‘ligina yoritilmasdan muhit, jamiyat, shu jamiyatdagi insonlar ahvoli ta’sirli, qalbgga yetib bora oladigan darajada ko‘rsatib berilgan. Bunda Abdulla Qodiriy obrazi ideal qahramon sifatida emas, boricha, bir inson qiyofasida yoritilgan. Qolaversa, film ruhiyatiga mos ravishda tanlangan Rauf Parfining “Assalomu alaykum, dorning og‘ochi” she’rini tinglab, tomoshabin har safar Abdulla Qodiriy bilan birgalikda dorning og‘ochiga ruhan salom berishga majbur bo‘lishi ta’sir kuchini oshirgan. Film inson qalbidagi cho‘g‘ni olovga aylantira oldimi, nafaslarini titratdimi, o‘zni savollar girdobiga otishga majbur etdimi, demak o‘z maqsadiga erishibdi.

Hujjatli filmda kompozitsiya juda puxta ishlangan. Har bir detal o‘ziga xos metofora tashiydi. Xuddi Abdulla Qodiriy publitsistikasi kabi. Kafka: “Soyalar quyoshni to‘sa olmaydi”, degani kabi hujjatli filmda nur va soyalar o‘yinidan mahorat bilan foydalanilganini ko‘rishimiz mumkin. Hayotimiz rang-baranglikdan iboratligi sir emas, ammo asarda nega aynan oq, qora va qizil ranglar ustun? Bu xuddi dog‘li



o'tmishning mafkura ta'sirida "oqlab-ko'klangan", "qo'shib-ayirilgan" sahifalaridagi haqiqat yillar o'tsinki, o'z rangida bo'y ko'rsatishiga, to'kilgan qonlar qancha bekitilmasin u borgan sari qizarib, qora tusga o'tishiga ishoradek.

Asarning syujet chizig'i Yangi yil kirib kelishi va uning tantanasi bilan boshlanadi. 1937-yil... lekin bu sana qonli sahifalarga muhrlanishini kim o'ylabdi deysiz? Hamma Yangi yilni eng ezgu tilaklar bilan boshlaydi, sarhisob esa Yangi yil eskirgachgina qilinadi... Kim bilibdi deysiz, bunday eski yillar butun bir millat esida hayqiriq bo'lib qolishini?

Kadrlar eski tuzumga ishora qiluvchi xaroba xonaga ko'chadi. Xaroba xonani ramziy ma'noda jamiyat, qulagan tuzum deb oladigan bo'lsak, bu xonadagi har bir buyumning o'z shiviri borligini sezganday bo'lasiz. Tartibsiz to'zg'ib yotgan buyumlar ichida ko'zingiz SSSR gerbi va unga yonma-yon havo tozalovchi moslama(protivagaz)ga tushadi. Buning o'ziyoq ulkan "qirollik"da kir, biqiq, nosog'lom, hayot uchun xavfli atmosfera mavjudligini, zanglagan bolta to'kkan qonlar rangi bayroqqa ko'chganini, inson erki bu yerda bor-yo'g'i o'yinchoqqa aylanganini sezamiz. Ammo zulm qancha ko'p bo'lsa, umri shuncha qisqa. To'xtagan soatni vaqtning o'zi chiqindiga aylantirib qo'yadi, "Все для фронта, все для победы" kabi soxta chaqiriqlarni ham oyog'i osmondan bo'lishiga majbur etib, keraksiz portret kabi xona burchagiga uloqtiradi.

Ammo yo'qotishlar yarasi doim azob beraveradi. Minorayi kalondan hilpiratilgan mustamlakachi bayrog'i butun millat madaniyati-yu diniga chang sola boshlaydi, endi ko'zalar bo'g'zigacha to'lgan, alvon suvlar oqizib ketayotgan do'ppilarga munosib boshni ham topish qiyin. Millat do'ppisini o'zi uloqtirar ekan, o'z boshidan o'zi voz kechayotganini sezganmikan?

Mana shunday o'rinlar ham filmda tarixiy manbalar yaxshi o'rganilganidan, zamonga xos bo'lgan buyumlar, kiyimlar va umumiy atmosfera yaxshi jonlantirilganidan dalolat beradi. Hujjatli filmdagi kadrlar almashinuvi ulanib ketgan iplarga tizilishi tarix va xotiraning bir-biriga o'rgimchak to'ri kabi ulanib ketganligiga ishora. Ular uzviy bog'liq, iplarni uzish butun tarixdan voz kechishdek gap. Bunda zamon arqon bilan bog'lab tashlangan, hukumatga xizmat qilish barobarida mana shu tuzum bilan oziqlanayotgan ko'zi bog'liq adolat ma'budasi Femidaning tarozisiga haqiqat tosh bosmasligi turgan gap.

Hujjatli filmda Abdullar Qodiriyning bolalik yillari, bobosi bilan bog'liq xotiralar, turli jang o'rinlari bugungi kunda kinemotografiyaning asosiy sohalaridan biri bo'lib kelayotgan animatsiya shaklida yoritilgan. Bu esa filmning haqiqat mantig'idan chetga chiqmagan holda ekranda eng ajoyib sahnalarni tadim etishga imkon bera olgan. Ayniqsa, o'rik gullarining uchishi o'zgacha ohang kiritgan.



Hujjatli filmning yutuqlaridan yana biri aktyorlarning to'g'ri tanlanganligi. Butun voqea uning atrofida aylanuvchi roviy Erkin Bozorov, Abdulla Qodiriy rolidagi Elyorbek Atabayev, Kalvak maxsum va Toshpo'lat tajang obrazini yoritgan Po'lat Normatovlarning mahorati tahsinga sazovor. Ayniqsa, Kalvak maxsum va Toshpo'lat tajang epizodlari aktyor tomonidan mahorat bilan yoritligani e'tiborni torta oladi, yuz qiyofasi, qo'l harakatlari, ovoz ritmi yaratilgan obrazga juda mos tushgan. Ammo aktyorlar monologlarining ba'zi o'rinlarida Toshkent shevasining foydalanib ketilganligi, qolaversa Qodiriyning maqolalarini ekranda yozuv orqali tasvirlayotganida so'zlardagi ba'zi imlomiy xatoliklarni ko'ramiz. Bu esa ziyrak tomoshabinning e'tiboridan chetda qolmasligi aniq.

Hujjatli filmni ham san'at deb olsak, san'atga sun'iy o'rinlarni olib kirish uning san'at darajasidan quyiga tushishiga sabab bo'lmasmikan? Xususan, buni film prologi va nihoyasida o'tmishni bugungi kun bilan solishtirish uchun tayyorlangan o'rinlarda ko'ramiz. Fikrimcha, solishtirishni tomoshabinning o'ziga qoldirish kerak edi.

Filmda Abdulla Qodiriy atrofida panjara va simto'rlar tasviri bor. Panjara adibning ijodi va hayotidagi, qolaversa butun bir siyosatdagi erksizlikni ifodalasa, Qodiriy ijodxonasini o'ragan simto'r ijodi va o'zini siyosat ta'siridan himoya qilish uchun qurilgan devorga o'xshaydi. Simto'r bilan qurilgan devor atrof-muhitni kuzatish imkonini berdi, ammo bu simlarni uzib uning ijod va umriga daxl qilishlaridan himoya qila olmadi. Afsus...

"Tarixni bilmagan kishi o'tmishdagi xatoni qaytarishga majburdir", degan edi Sitseron. "Abdulla Qodiriy" hujjatli filmi ham bizga tarixni o'rgatish barobarida bugunimizga ham ko'zgu tuta oldi:


***Ko'r bizning ahvolimiz g'aflatda qanday yotamiz?***

***Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulg'a sotamiz...***

Filmda o'tmishdagi g'aflatni tomosha qilar ekanman, bugunni ham ko'rgandek bo'ldim: ilmsizlik, qimorbozlik, fahsh, xo'roz urushtirish-u maishatdan sarmast bo'lgan odamlar... Hozir odamlar tashqi ko'rinish jihatidan ancha madaniylashgandir, ammo ularning tafakkuri, dunyoqarashi qanchalik evrilgan, axir "kostyum-shim" kiygan bilan "bangi" ziyoli bo'lib qolmaydi-ku..

"...Yozuvchi o'shanda achchiq haqiqat bilan to'qnashgandi. Sening jamiyatdagi mavqeying, hayotingdagi forovonlik katta yolg'onga qanchalik hissa qo'shganing bilan belgilanar ekan. Lekin endi kech edi". O'zbek Oyim qora kiyib aza ochgandi, balki, o'zbekoyimlar hamon azadordir? Xarobaga aylangan xonaning shiftlari endi ochiq, osmonlari bor, unda panjaralar yo'q. Balki, ozodlikka tashna qushlar allaqachon hujrani tark etgandir? Balki... Lekin xarobaga aylanib, qarovsiz





qolgan xonada haminqadar bo‘lib qolgan “Mushtum” uchun bir musht bo‘lish kerakdir?! Yoki, haqiqatan, “Go‘rlar qisir, tug‘ishdan qolgan” mikan?..

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Abdulla Qodiriy “Tanlangan asarlar” (2022)
2. Faxriyor “She‘rlar”
3. Abdulla Qodiriy “Mehrobdan chayon” romani

